



APPENDEKTOMIYA AMALIYOTINI ERTA BAJARISHNING CHUVALCHANGSIMON O'SIMTA MORFOLOGIYASIDA

TUTGAN O'RNI

Safoyev B.B.

bsafoyev@mail.ru

Raxmatullayev J.D

<https://orcid.org/0009-0001-8657-5539>

Sh.Sh. Yarikulov

<https://orcid.org/0009-0003-8652-3119>

Abu ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbekiston,
Buxoro sh., A. Navoiy ko'chasi. Tel: +998 (65) 223-00-50

e-mail: info@bsmi.uz

<https://www.doi.org/>

ARTICLE INFO

Received: 22th July 2023

Accepted: 30th July 2023

Online: 31th July 2023

KEY WORDS

Retrospektiv tahlil,
chualchangsimon o'simta,
appendektomiya,
morfologiya, patomorfoloqik
o'zgarish.

ABSTRACT

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Vobkent tumani subfialialida 2021-2022 yilda appendektomiya amalyoti bajarilgan 368 nafar bemorning kasallik tarixi retrospektiv tahlil qilindi. Bemorlarda o'tkir appenditsit klinik belgilari boshlangandan to appendektomiya amalyoti bajarilgan vaqtiga qarab quyidagilarga ajratildi. 1A kichik guruhda (n=108) kasalxonaga kasallik belgilari boshlanganidan va 10 soat ichida appendektomiya amalyoti bajarilgan bemorlar; 1 B kichik guruhida esa (n = 195) kasallik boshlanganidan 24 soat ichida kasalxonaga yotqizilgan va appendektomiya amalyoti o'tkazilgan holatlar; 1C- kichik guruhida (n = 65) kasalxonaga kasallik boshlangandan 72 soat ichida yotqizilgan va appendektomiya amalyoti bajarilganlar guruhlangan. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, erta tashxis qo'yish va operatsiya qilish chualchangsimon o'simta morfoloqiyasiga bevosita aloqador.

Dolzarbliqi; O'tkir appenditsit xirurgik kasallik orasida uchrash holati 65-78% ini tashkil etishi, shundan 7-12 %i asoratlangan shaklda uchraydi, o'lim holati appenditsitdan keyingi peritonitlarda 7-22.5% hollarda uchraydi.

O'tkir appenditsitning klinik ko'rinishlari hamisha ham tipik bo'lavermaydi. Chualchangsimon o'simta va atrofdagi organlarda bir-biriga o'xshash patologik anatomik o'zgarishlar yuz bergan holda bu kasallikning klinik ko'rinishlari juda turfa xil bo'lishi mumkinki, bu har bir organizmning o'z xususiyatlariga ham aloqador bo'ladi. Og'riqlarning kuchi va lokalizatsiyasi ko'p jihatdan chualchangsimon o'simtaning anatomik joylashuviga hamda o'simtadagi yallig'lanishga javoban yuzaga keladigan neyro reflektor reaksiyaga bog'liqdir. Kasallikning dastlabki belgilari paydo bo'lganda, o'simtada hali sezilarli morfoloqik o'zgarishlar ro'y bermagan mahalda bemorning shikoyati qorindagi og'riqlar, va o'rtacha



ifodalangan dispeptik belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zan esa tipik appenditsit manzarasi kuzatiladi. Lekin bu davrda appendektomiya qilinganda o'simtada yallig'lanishga xos o'zgarish (makroskopik va mikroskopik) bo'lmasligi mumkin.

Chuvalchangsimon o'simta haddan tahqari oqarib turganda (tomirlardagi uzoq vaqt davom etib kelayotgan spazm belgisi) birdan bir o'zgarish o'simtadagi morfologik dastlabki belgidir. Bunday hodisalar ancha ko'p kuzatiladi (15.6%-17.6%).

Ana shu sababli o'tkir appenditsitning kilinik belgilari yaqqol namoyon bo'lsayu lekin chuvalchangsimon o'simta morfologiyasida o'zgarishlar bo'lmasa, buni hozirda o'simtada patomorfologik o'zgarish boshlanmasdan turib barvaqt amalga oshirilgan operatsiya natijasi deb hisoblaydilar. Yana shuni ham nazarda tutish kerakki, reflektor-funksional o'zgarishlar juda keskin bo'lmasa ba o'simta devoridagi qaytmas o'zgarishlarni keltirib chiqarmaganda organizimni infeksiyaga qarshiligi yetarli darajada yuqori bo'lsa, u holda og'riq xuruji o'simtada patomorfologik o'zgarishlar avj olmasdan turib qaytib ketishi mumkin, bunda kasallik kilinikasi asta sekin so'nib boradi. Mana shunday xolatni A.A.Rusanov "appendikulyar sanchiq" deb ataydi, chunki bu o'rinda appendisit hali avj olmagan buladi. Ayni vaqtda bu olim «appendikulyar sanchiqni boshdan kechirgan kasallarning ko'pchiligida bunday hurujlar takrorlanadi va kasallarni uchdan ikki kismini keyinchalik operatsiya qilishga (appendektomiya o'tkazishga) to'g'ri keladi» deb ko'rsatib o'tadi (Sh.X.Murliga).

Biroq o'tkir appenditsitning bosqichma-bosqich tarzda o'tib borishi va bosqichlarining ma'lum vaqt oraliqlari bilan cheklangan bo'lishi to'grisida so'z bo'lishi xam mumkin emasligini unutish yaramaydi.

Bunday fikr xato va zararlidir, chunki patologoanatomik o'zgarishlar o'simtada jadallik bilan avjiga chiqib, infeksiya qorin bo'shlig'iga tarqalib ketishi (peritonit), intoksikatsiya kuchayishi mumkin, bu esa og'ir oqibatlariga olib boradi.

Boshqacha aytganda, o'simtadagi yallig'lanish o'chog'ining «o'zini qanday tutishi» ni oldindan bilish juda qiyin.

Materiallar va uslublar

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Vobkent tumani subfilialida 2021-2022 yilda appendektomiya amalyoti bajarilgan 368 nafar bemorning kasallik tarixi retrospektiv tahlil qilindi. Bemorlarda o'tkir appenditsit klinik belgilari boshlangandan to appendektomiya amalyoti bajarilgan vaqtiga qarab quyidagilarga ajratildi. I A kichik guruhda (n=108) kasalxonaga kasallik belgilari boshlanganidan va 10 soat ichida appendektomiya amaliyoti bajarilgan bemorlar; I B kichik guruhida esa (n = 195) kasallik boshlanganidan 24 soat ichida kasalxonaga yotqizilgan va appendektomiya amaliyoti o'tkazilgan holatlar; I C- kichik guruhida (n = 65) kasalxonaga kasallik boshlangandan 72 soat ichida yotqizilgan va appendektomiya, qorin bo'shlig'ini sanatsiyasi va drenajlash amaliyoti bajarilgan. Tadqiqotda guruhlarining tenglik nuqtai nazaridan 20 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan va hamroh kasalliklari bo'lmagan bemorlar tanlangan.

1-jadval.

I A kichik guruhidagi chuvalchangsimon o'simtaning morfologik o'zgarishlardagi statistikasi .

O'zgartirish turi	Bemorlar soni	%
Kataral	75	69.4



Flegmona	31	28.7
Gangrena	2	2.9
Gangrenoz-perforativ	0	0
Jami	108	100

2-jadval.

I B kichik guruhidagi chuvalchangchangsimon o'simtaning morfologik o'zgarishlardagi statistikasi

O'zgartirish turi	Bemorlar soni	%
Kataral	27	13.8
Flegmona	154	78.9
Gangrena	12	6.2
Gangrenoz-perforativ	2	1.1
Jami	195	100

3-jadval.

I C kichik guruhidagi chuvalchangchangsimon o'simtaning morfologik o'zgarishlardagi statistikasi.

O'zgartirish turi	Bemorlar soni	%
Kataral	1	1.5
Flegmona	18	27.7
Gangrena	36	55.4
Gangrenoz-perforativ	10	15.4
Jami	65	100

1A guruh tarkibiga kiruvchi 108 nafar bemorning erta murojati natijasi sifatida ularning aksar (69.4%) qismi kataral o'zgarish kuzatildi deb baholandi. 24 soat ichida qabulga kelgan 1B guruh bemorlarda esa 2-bosqich – flegmanoz morfologik o'zgarishlar 78.4 % operativ amaliyotda kuzatilgan. Gangrenoz (55.4%) va gangrenoz perforativ (15.4%) holati eng ko'p qayd etilgan bemorlar guruhi esa og'riq boshlanganidan 72 soat va undan kechikib murojat qilgan va appendektomiya amaliyotini boshdan kechirgan.

Xulosa:

Qayd etilgan ma'lumotlardan namoyon bo'lishicha, chuvalchangchangsimon o'simta morfologik o'zgarishlariga bemorda og'riq paydo bo'lgan fursat hamda appendektomiya amaliyoti bajarilgan muddat oralig'ida kechgan vaqt bevosita aloqadordir. Aksariyat hollarda chuvalchangchangsimon o'simtada kuzatiluvchi morfologik o'zgarishning chuqurlashuvi nisbatan kech amalga oshirilgan operativ amaliyot natijasida yuzaga keladi. Bir so'z bilan aytganda, o'tkir appenditsit tashxisini erta qo'yish va appendektomiya amaliyotini erta bajarish appendiksning keyingi bosqichlarga o'tish ehtimolini kamaytirish bilan birga bemorning normal turmush tarziga ertaroq qaytishini ta'minlaydi.

References:

1. Сафоев Б.Б. Курбонов О.М. Хасанов А.К., Ярикулов Ш.Ш. Роль бронхоскопии лечения осложнённых эндобронхиальных лигатурных свищей после эхинококкэктомии легкого. //Новый день в медицине. -2019.-№3 (27).-С.239-241.



2. Хасанов А.К., Ярикулов Ш.Ш., Мухаммадиев И.Ш., Мирсолиев Ш.Г. Проблема острого абсцесса легкого: этиопатогенез, диагностика и лечение на современном этапе//Новый день в медицине.-2019.-№ 4 (28).-С.324-328.
3. Хасанов А.К., Ярикулов Ш.Ш., Мирсолиев Ш.Г. Современное состояние проблемы этиопатогенеза и лечения больных гнойными заболеваниями легкого //Новый день в медицине.-2020.-№3 (31).-С.149-155.
4. Safoev B.B., Turdiev Kh.K., Boltaev T.SH., Clinical and Laboratory Features of Covid - 19 Course in Combination with Pneumonia// European multidisciplinary journal of modern science. – 2022, Vol. 4, 2021, Pages. 622 – 626.
5. Turdiev Khurshid Kobilovich. Diagnostic criteria for covid - 19 combined with pneumonia. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-05 July-2022, ISSN (E): 2720-5746.
6. Turdiev Khurshid Kobilovich, Rakhmatov Shukhrat Sharopovich. Complications After Covid - 19 Combined with Pneumonia. Texas Journal of Medical Science, ISSN NO: 2770-2936.
7. Сафоев Б.Б., Ярикулов Ш.Ш., Икромов Т.Э. Влияние различных доз ультрафиолетовой лучей на резистентности патогенные микроорганизмы в эксперименте (in vitro). Тиббиётда янги кун - Бухоро, 2020. №4(33) -- С. - 129-131. (14.00.00; № 22)
8. Сафоев Б.Б., Ярикулов Ш.Ш. Подавление резистентности микрофлоры под воздействием раствора диметилсульфоксида при лечении гнойно-хирургических заболеваний мягких тканей // Биология ва тиббиёт муаммолари - Самарканд, 2021. - №2 (127). - С. - 125-130. (14.00.00; №19)
9. Ярикулов Ш.Ш., Хасанов А.К., Мухаммадиев И.Ш., Пути снижения резистентности микрофлоры к антибиотикам при лечения гнойных ран. // Тиббиётда янги кун - Бухоро, 2020. -№3(31). – С. 156-160 (14.00.00; № 22)
10. Safoev Bakhodir Barnoyevich, Yarikulov Shukhrat Shokirovich, Boltayev Timur Shavkatovich. Influence of different concentrations of dimethylsulfoxide solution on antibiotic sensitivity of pathogenic microorganisms in experiment (In Vitro) European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Great Britain. 2020, Volume 7, Issue 3, P. 5194-5198 (14.00.00; Scopus)
11. Safoev Baqodir Barnoyevich., Yarikulov Shuxrat Shokirovich. The influence of different doses of ultraviolet rays on the resistance of pathogenic microorganisms in experiment (in vitro) // Journal NX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Maharashtra India. - 2021. - Vol 7. - №. 06. - P. 285–290. Impact Factor 7.223.
12. Ярикулов Ш.Ш. Влияние различных концентраций раствора диметилсульфоксида на чувствительности к антибиотикам патогенных микроорганизмов в эксперименте. Тиббиётда янги кун. Бухоро. - №4 – 33 - 2020. – С. 153 – 155.
13. Сафоев Б.Б., Ярикулов Ш.Ш., Арашев Р.Р. Методы улучшения местного лечения гнойных ран с применением ультрафиолетового облучения в комбинации с многокомпонентными мазями на водорастворимой основе // Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference // 25th April, 2021. – Washington, USA: "CESS", 2021. Part 5, Issue 1 – p, P. 558-565.



14. Сафоев Б.Б., Ярикулов Ш.Ш., Каршиев Н.Р. Application of physical and chemical methods in treatment of purulent diseases of soft tissue Proceedings of Ingenious Global Thoughts An International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from San Jose, California November 29th, 2020 P. 55-56.
15. R.R.Arashov, & Sh.Sh.Yarikulov. (2022). Comparative evaluation of the outcome of treatment of patients with cavity liver formation with a simple and complex subdiaphragmal position. World Bulletin of Public Health, 13, 55-62. Retrieved from.
16. Radjabov Vohit Bafoyeovich, & Yarikulov Shukhrat Shokirovich. (2022). Modern approaches to abdominal drainage in diffuse peritonitis. World Bulletin of Public Health, 13, 50-54. Retrieved from.
17. Р. Р.Арашов, & Ш. Ш. Ярикулов. (2022). Особенности хирургического лечения больных полостными образованиями печени при сложных внутрпеченочных расположениях. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 6, 30-38. Retrieved from.
18. R. R. Arashov, Sh. Sh. Yarikulov, & B. B. Safoev. (2022). Treatment of patients with cavity liver formation with a simple and complex subdiaphragmal position. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(8), 65-74. Retrieved from.
19. Шаропова М. С., Сафоев Б. Б., & Ярикулов Ш. Ш. (2022). Особенности клинико-лабораторного течения гнойных ран в сочетанном фоне сахарного диабета и диффузного токсического зоба. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(8), 75-87. Retrieved from
20. Safoev Baqodir Barnoyevich, & Yarikulov Shuxrat Shokirovich. (2021). The influence of different doses of ultraviolet rays on the resistance of pathogenic microorganisms in experiment (in vitro). JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(06), 285-290.